

UDK: 615.012.6:63(575.192)

QASHQADARYO VILOYATIDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISH- TIRISH HOLATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Ergashev Raxmatulla Xidirovich–Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori.

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna– Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrası assistenti

ПУТИ УЛУЧШЕНИЯ СОСТОЯНИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ВЫРАЩИ- ВАНИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБ- ЛАСТИ

Эргашев Рахматулла Хидирович- Каршинский инженерно-экономический институт, профессор кафедры Инновационной экономики, доктор экономических наук.

Хужакулова Нигора Рустамовна- Каршинский инженерно-экономический институт, ассистент кафедры Инновационной экономики

WAYS TO IMPROVE THE STATE AND EFFICIENCY OF GROWING ME- DICINAL PLANTS IN THE KASHKADARYA REGION

Ergashev Rakhmatulla Khidirovich- Karshi Engineering and Economic Institute, professor of the Department of Innovative Economics, doctor of Economic Sciences.

Khojakulova Nigora Rustamovna- Karshi Engineering and Economic Institute, assistant of the Department of innovative Economics

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida dorivor o‘simliklarni yetishtirish holati va samaradorligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar o‘rganilgan hamda tahlil qilingan. Ko‘rsatkichlar va tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: dorivor o‘simliklar, samaradorlik, iqtisodiy munosabatlar, yalpi hosil, eksport, import.

Аннотация. В данной статье изучены и проанализированы проблемы и недостатки в улучшении состояния и эффективности выращивания лекарственных растений в Кашкадарьинской области. Выводы и предложения разрабатываются на основе показателей и анализа.

Ключевые слова: лекарственные растения, эффективность, экономические отношения, валовой сбор, экспорт, импорт.

Abstract. This article explores and analyzes the problems and disadvantages of improving the state and effectiveness of growing medicinal plants in the Kashkadarya region. Conclusions and proposals have been developed based on indicators and analysis.

Keywords: Medicinal plants, efficiency, economic relations, gross harvest, exports, imports.

1. KIRISH

Dorivor o‘simliklar ishlab chiqarish FAO ma‘lumotlariga ko‘ra, butun dunyo bo‘ylab dorivor va xushbo‘y o‘simliklar ishlab chiqarish umumiy maydoni 77 million gektardan 330 million tonnani tashkil etadi. Yevropada 200 000 ga dan ortiq dorivor va aromatik o‘simliklarni yetishtirish maydonlari (Fransiya-da 52 000 ga, Polshada 30 000 ga, Ispaniyada 27800 ga, Bolgariyada 16800 ga, Xorvatiyada 8500 ga, Chexiyada 7225 ga, Italiyada 7191 ga, Gretsiyada 6800 ga va Avstriyada 4136 ga joylashgan), qayta ishlash va tarqatish bilan

shug‘ullanadigan 36 000 dan ortiq kompaniyalar mavjud. Germaniyada esa dorivor va xushbo‘y o‘simliklar 750 ta fermer tomonidan umumiy 12240 ga maydonda yetishtiriladi [1].

Yangi O‘zbekiston shifobaxsh va ekologik toza dorivor o‘simliklar bilan farmatsevtika sanoati iste‘molchilari ehtiyojini ta‘minlash borasida katta tajribaga ega. Qashqadaryo viloyatining tabiati, ayniqsa tog‘ va tog‘ oldi hududlari qulay iqlim sharoitiga ko‘ra boy va rang-baranglikka ega. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, bu yerda ilmiy tibbiyotda qo‘llaniladigan yoki tavsiya qilinadigan 120 dan, xalq

tabobatida foydalaniladigan 1000 dan ortiq o‘simliklar turlari uchraydi. Lekin, ayni paytda rasman xom ashyo sifatida foydalaniladigan dorivor o‘simliklar turi 40 tadan oshmaydi.

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish samaradorligi shu soha bo‘yicha faoliyat olib boruvchi korxonalar va xo‘jaliklar, tadbirkorlar bilan qayta ishlash tizimi munosabatlari orasidagi mavjud o‘zaro tashkiliy-iqtisodiy tizim faoliyati bilan izohlanadi. Ushbu tashkilotlarning moliya-xo‘jalik faoliyati davomida o‘zaro iqtisodiy manfaatdorlikka asoslangan aloqalar ko‘rinishida iqtisodiy munosabatlar shakllanadi. Qishloq xo‘jaligi tegishli bo‘g‘inlarining bir-biriga munosabati va o‘zaro ta‘sir natijasida dorivor o‘simliklarni yetishtirish, ularni ishlash va tayyor bo‘lgan mahsulotni iste‘molchiga yetkazish amalga oshiriladi.

2. MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotga doir adabiyotlarda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, joylashtirish, ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash, dorivor o‘simliklarni yetishtiruvchi xo‘jaliklar va qayta ishlash korxonalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar hamda samaradorligini baholash kabi masalalar iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish hamda uning rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati jahon va mamlakatimiz olimlari diqqat markazida bo‘lib kelgan. Jumladan, mazkur muammoning ilmiy-nazariy va metodologik hamda amaliy muammolari xorijlik olimlardan M. M. Karaman [2], V. E. Karachevskaya [3], N.I.Tarashenko [4], A.A.Terexin [5], V.E.Cherkashina [6], Yu.E.Alekseev [7] va boshqa bir qancha olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarni o‘rganish, ularni zaxirasini aniqlash, tayyorlash, o‘stirish va xorijiy mamlakatlardan keltirilgan turlarini ekib ko‘paytirish ishlari juda keng miqyosda olib borilmoqda. Bu borada O‘zbekistonning K.Z.Zokirov [8], R.X.Ergashev [9], M.S.Yusupov [10], N.D.Saidova, I.B.Rustamova, Sh.A.Tursunov [11], N.K.Abubakirov [12], A.Ya.Butkov [13], I.P.Sukervanik [14], M.B.Sultonov [15] kabi atoqli olimlarning xizmatlari salmoqlikdir.

Ushbu iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirishning

tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning mamlakatimiz va hududlardagi o‘ziga xos xususiyatlari, sohaga innovatsiyalarni joriy qilish va samaradorligini oshirish muammolari o‘z ifodasini topgan. Mazkur tadqiqotlarda dorivor o‘simliklarni yetishtirishga oid masalalar dolzarb muammo sifatida qarab chiqilgan.

3. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyatida dorivor o‘simliklarni yetishtirish holati va dinamikasi o‘rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

4. TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Ma‘lumki, insoniyat uchun eng muhimi bu - salomatlikdir. Shu boisdan, inson salomatligini yaxshilaydigan vositalarga ehtiyoj ko‘p bo‘ladi. Shu sababdan ham dorivor o‘simliklar eng ko‘p sarflanadigan mahsulotlar turiga kiradi. Rivojlangan mamlakatlarda odamlar imkoni boricha sog‘liq uchun zararsiz, tabiiy dori vositalarini iste‘mol qilishni afzal bilishadi.

Dorivor o‘simliklar inson salomatligini yaxshilash uchun eng zarur bo‘lgan, boshqa hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan mahsulotlar sirasiga kiradi. Mamlakatimizda aholi salomatligini yaxshilash, xalqimizni tabiiy dori vositalari bilan uzluksiz ta‘minlash ustuvor vazifa sifatida qarab kelinmoqda. Jumladan, respublikamizning lalmikor va sug‘oriladigan yerlaridan unumli foydalanish maqsadida, keyingi yillarda dorivor o‘simliklarni katta maydonlarga ekishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizning barcha hududlarida, o‘rmon xo‘jaliklarida hamda qishloq xo‘jaligi yerlarida dorivor o‘simliklar yetishtiriladi. Xususan Qashqadaryo viloyatida viloyat o‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi tizimida 8 ta o‘rmon xo‘jaligi faoliyat yuritib kelmoqda. Ularda jami 50 ga yaqin dorivor o‘simliklar turlari yetishtirilib kelinadi.

Qashqadaryo viloyatida keyingi yillarda ayrim turdagi dorivor o‘simliklarning maydoni sezilarli darajada oshdi. Buni viloyatdagi o‘rmon xo‘jaliklari misolida yoki birgina “BBU-AZAMAT” xususiy korxonasida yetishtiriladi-

gan dorivor o‘simliklar misolida ham ko‘rishi- miz mumkin.

1-jadval

“BBU-AZAMAT” xususiy korxonasida asosiy turdagi dorivor o‘simliklar yetishtirishning 2019-2021 yillardagi dinamikasi [16]

Ekin turlari	2019 y.		2020 y.		2021 y.		2021 yilda 2019 yilga nisbatan o‘zgarishi, % da
		Jamiga nisbatan		Jamiga nisbatan		Jamiga nisbatan	
	maydoni	% da	Maydoni	% da	maydoni	% da	
Maydoni, ga							
Moychechak guli	1	15,4	1	4,3	5	9,6	400
Gulxayri guli	2	30,8	10	43,5	32	61,5	1500
Dorivor valeriana ildizi	1	15,4	5	21,7	7	13,5	600
Lebistok ildizi	0.5	7,8	5	21,7	5	9,6	900
Gulxayri ildizi	2	30,8	2	8,7	2	3,8	0
JAMI:	6,5	100	23	100	52	100	700
Yalpi hosil, kg							
Moychechak guli	810	10,5	955	2,9	4923	6,6	507,8
Gulxayri guli	2260	29,2	12160	37,4	48920	65,6	2064,6
Dorivor valeriana ildizi	1310	16,9	6842	21,05	8450	11,3	545,04
Lebistok ildizi	920	11,9	9871	30,4	9565	12,8	939,7
Gulxayri ildizi	2430	31,4	2680	8,2	2708	3,6	11,4
JAMI:	7730	100	32508	100	74566	100	864,6
Hosildorligi, kg/ga							
Moychechak guli	810		955		984,6		21,6
Gulxayri guli	1130		1216		1528,75		35,3
Dorivor valeriana ildizi	1310		1368,4		1207,1		-7,8
Lebistok ildizi	1840		1974,2		1913		4
Gulxayri ildizi	1215		1340		1354		11,4

“BBU-AZAMAT” xususiy korxonasida yetishtiriladigan asosiy turdagi dorivor o‘simliklarning maydoni 2021 yilda 2019 yilga nisbatan qariyb 46 gektarga yoki 8 barobar ortgan, shundan gulxayri guli maydoni 16 martaga va dorivor valeriana ildizi maydoni 600 % ga oshgan. Lebistok ildizi va gulxayri ildizi maydonlari ham o‘rganilayotgan davrda ortganligini ko‘rishimiz mumkin. (1-jadval).

Masalan, 2021 yilda dorivor o‘simliklardan olinadigan yalpi hosil miqdori 2019 yilga nisbatan 66836 kg ga yoki 9,6 marta oshgan bo‘lsa, moychechak gulining yalpi hosili 4113 kg ga yoki 6 marta, gulxayri guli 46660 kg ga

yoki 21,6 marta, dorivor valeriana ildizi 7140 kg ga yoki 6,5 martaga, lebistok ildizi 8645 kg ga yoki 10,4 martaga oshgan bo‘lsa, gulxayri ildizi esa o‘rganilayotgan davrda 274 kg ga yoki 1,1 martaga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

“BBU-AZAMAT” xususiy korxonasida 2021 yilda moychechakning o‘rtacha hosildorligi 984,6 kg/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, gulxayri gulida bu ko‘rsatkich 1528,75 kg/ga, valeriana ildizida 1207,1kg/ga, lebistok ildizida 1913 kg/ga va gulxayri ildizida 1354 kg/ga ni tashkil etgan. Boshqacha qilib aytganda, 2021 yilda 2019 yilga nisbatan gulxayri gulining o‘rtacha hosildorligi 398,75 kg/ga yoki 35,3 % ga oshgan

bo'lsa, moychechak guli 174,6 kg/ga yoki 21,6 % ga, gulxayri ildizi 139 kg/ga yoki 11,4 % ga oshgan. Lebistok ildizining hosil-dorligi o'rganilayotgan yillar davomida 73 kg/ga yoki 4 % ga oshgan bo'lsa, dorivor vale-riana ildizi - 102,9 kg/ga yoki -7,8 % ga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

Dorivor o'simliklarni yetishtirishni ko'paytirishdan ko'zlangan maqsad mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, tabiiy vositalar yordamida aholi salomatligini yanada mustahkamlash, aholini zararsiz tabiiy dori vositalari bilan ta'minlash va eksport xajmlarini yanada oshirish, dorivor o'simliklarni yetishtirishda ularni oqilona joylashtirishni tashkil etish hamda mahsulot yetishtiruvchilarning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.

Buning uchun esa zarur yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, urug'lik va boshqa moddiy resurslar hisob-kitob qilinib, o'z vaqtida yetkazib berish chora-tadbirlari ko'rilayapti.

Bu amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi soha oldiga qo'yilayotgan talab – dori-darmon mahsulotlari importini keskin kamaytirish va dorivor o'simliklar eksportni ko'paytirishga xizmat qiladi.

Aholi salomatligini yaxshilash va dori-darmon vositalariga bo'lgan talabini qondirish, qayta ishlash korxonalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ularning samaradorligini oshirish zarurati kuchaymoqda. Shu bilan birga, dorivor o'simliklar, xususan, kavrak yetishtirishni rivojlantirish tendensiyalari ancha ziddiyatli kechmoqda. Bir tomondan dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash quyi tarmog'ini texnik-texnologik modernizatsiyalash sur'atlarining pastligi, samarali innovatsion infratuzilmalar yetarli emasligi, dorivor o'simliklarni yetishtirish bo'yicha katta ichki imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, katta miqdorda dori-darmon vositalari importga olinmoqda.

Shuningdek, ko'pgina dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun urug'likning asosiy qismi xorijdan importga olinmoqda. Boshqa tomondan, dorivor o'simliklarni, xususan, kavrak yetishtirish va xom ashyosini qayta ishlashni tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy metod-

laridan samarali foydalanilmayapti. Natijada, dorivor o'simliklarni yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarining samaradorligi pastligicha qolib ketmoqda.

Hozirgi kunda birgina dorivor o'simliklar yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar o'zaro munosabatlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muhim masalalar o'z yechimini topishi zarur. Xususan:

- dorivor o'simliklarning har xil tuproq-iqlim sharoitlariga mos keladigan yuqori avlodli, serhosil, kasallik va zararkunandalarga chidamli turlarini yetishtirishni ko'paytirish;

- dorivor o'simliklar yetishtirish va uni yanada rivojlantirish, urug'chilikni rivojlantirishda rag'batlantirish mexanizmi qoniqarli darajada emasligi shuningdek, shu sohada faoliyat olib borayotganlar ishlarining sustligi;

- dorivor o'simliklardan yuqori hosil olish va yetishtirishda uning tannarxini pasaytiradigan zamonaviy resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish bo'yicha o'rmon, fermer va dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa yer egalariiga amaliy yordam va maslahatlar berishda sohaning yetuk olim va mutaxassislari ishtirokida ko'rgazmali, hududiy ilmiy-amaliy o'quv seminarlarini tashkil etish va uni o'tkazish ishlari qoniqarli emasligi;

- mavjud kamchiliklarni chuqur tahlil qilib, o'rganib, tarmoqni yanada rivojlantirish masalalariga qaratilgan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish istagidagi tadqiqotchi va olimlar uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlar tizimli ravishda hisobotlarda yuritilmaganligi boisdan, yuqori malakali mutaxassis va ilmiy kadrlar tayyorlash masalalarida oqsoqlanishlar kuzatilayotganligi;

- dorivor o'simliklar yetishtirish uchun resurslar ta'minoti, ya'ni mablag', urug'lik, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, biologik va kimyoviy vositalar hamda mexanizatsiya xizmatlari bilan subyektlarni o'z vaqtida yetarli darajada ta'minlanmayotganligi;

- yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarni madaniylashtirish, birlamchi urug'chiligini tashkil etish, ilmiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, urug'chi-olimlar va soha mutaxassislarini keng jalb qilish ishlari qoniqarsiz tarzda amalga oshirilayotganligi;

- dorivor o‘simliklardan yuqori sifatli xom ashyo olish va qayta ishlash masalasida respublika va rivojlangan xorijiy davlatlarning ilmiy muassasalari va olimlari o‘rtasida uzviy hamkorlik aloqalarining yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;

- viloyatimizning tuproq-iqlim sharoitlariga mos keladigan muqobil xom ashyo olinadigan dorivor o‘simliklarni izlab topish, ularni yetishtirish va qayta ishlash texnologik jaryonlarining o‘rganilmaganligi;

- dorivor o‘simliklarni ilmiy asoslangan xolda joylashtirishga e‘tibor berilmasligi natijasida belgilangan hosil olinmayotganligi. Bu esa, qayta ishlash korxonalarining xom ashyo ta‘minotida yetishmovchiliklarga sabab bo‘lmoqda.

- dorivor o‘simliklar yetishtiruvchi korxonalar tomonidan mahsulotlar sifatini yaxshilashni ta‘minlash uchun texnologiyalarning yetishmasligi;

- dorivor o‘simliklarni yetishtiruvchi xo‘jaliklar bilan ularni qayta ishlovchi korxonalari o‘rtasida kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va ularning ijrosini monitoring qilish ishlari-ning murakkabligi;

- tizimli nazorat o‘rnatilmayotganligi tufayli dorivor o‘simliklarni ilmiy asoslangan holda joylashtirishga e‘tibor berilmayotganligi natijasida belgilangan hosil olinmaganligi;

- ixtisoslashgan xo‘jaliklarning kamligi, dorivor o‘simliklarni ekish uchun yer to‘g‘ri tanlanmayotganligi, zamonaviy ilg‘or agrotexnologiyalarning keng qo‘llanilmayotganligi, dorivor o‘simliklar hosilining o‘z muddatlarida sifatli va nes-nobud qilmasdan yig‘ishtirib olinishida texnikalarning yetishmasligi kabi muammolar tarmoq samaradorligiga salbiy ta‘sirini o‘tkazib kelayotganligi aniqlandi.

5. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda tarmoqda ishni to‘g‘ri tashkil etish uchun boshqaruv tizimini optimallashtirish va tuzilmalarda tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish vaqti kelganligini davrning o‘zi dolzarb masala etib belgilab bermoqda.

Qashqadaryo viloyati agrar sektorida kadrlar masalasi va ishlab chiqarishga innovatsion yondashuvni tatbiq etish borasida kamchiliklar kuzatilayotgan edi. Sohadagi bu kabi

muammolarning yechimiga qaratilgan ayrim tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Xususan:

Birinchidan, dorivor o‘simliklar yetishtirish va uni yanada rivojlantirishga xizmat qiladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash maqsadida, qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida “dorivor o‘simliklar” kafedrasini tashkil etish va unda ixtisoslashtirilgan tor doiradagi “agronom”larni tayyorlash;

Ikkinchidan, dorivor o‘simliklar jumladan kavrak urug‘lik materiallariga bo‘lgan ehtiyoj va qaramlikni yumshatish hamda xo‘jaliklarni viloyatimizda yetishtirilgan va mahalliy- lashtirilgan urug‘lik materiallari bilan ta‘minlash maqsadida “viloyatimizning tuproq-iqlim sharoitlarini chuqur tahlil qilib, har bir tumanda kamida bittadan noan‘anaviy dorivor o‘simliklar urug‘chiligiga ixtisoslashgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tashkil etish” orqali “dorivor o‘simliklar urug‘ligi yetishtirishga ixtisoslashtirilgan urug‘chilik fermer xo‘jaliklari”ni tashkil etish;

Uchinchidan, dorivor o‘simliklarni yetishtirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar xususida fan, ta‘lim va amaliyotni o‘zaro integratsiyalashtirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘lamini oshirish maqsadida qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimida “dorivor o‘simliklar” ilmiy-tadqiqot instituti yoki markazini hamda “Qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha “Muvofiqlashtiruvchi ilmiy-texnik Kengash” tashkil etish;

To‘rtinchidan, dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash tarmog‘idagi boshqaruv tizimining tashkiliy-uslubiy va kadrlar ta‘minotini takomillashtirish maqsadida, qishloq xo‘jaligi sohasidagi davlat boshqaruvi tizimida “dorivor o‘simliklar boshqarmasi” hamda viloyatlar va tumanlarda uning hududiy bo‘linmalarini tashkil etish;

Beshinchidan, dorivor o‘simliklar yetishtirish bo‘yicha ilg‘or xalqaro agroilm-fan, ta‘lim va amaliyot tajribalarini Qashqadaryo viloyatida qo‘llash maqsadida xorijlik olim va soha mutaxassislarini bevosita O‘zbekistonda faoliyat olib borish tajribasini qo‘llash va bosh-

qalar.

Taklif etilayotgan asosiy va qo‘shimcha boshqaruv tuzilmalari joylarda faoliyat yuritayotgan korxonalarining mavjud muammo va kamchiliklarini tizimli ravishda o‘rganib, fan, ta‘lim va amaliyotni o‘zaro integratsiyalash-tirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqchi bo‘lgan bo‘lajak tadqiqotchilar uchun o‘z yechimini kutib turgan muammoli masalalarni qamrab olgan “Tarmoq muammolari banki”ni tashkil etilishi mumkin.

Bundan tashqari, viloyatda dorivor o‘simliklarni yetishtirishni rivojlantirish masalasida-gi yagona boshqaruv tuzilmasi vujudga keladi.

Hududlarda ixtisoslashtirilgan qishloq xo‘jaligi klasterlarini tashkil etish bo‘yicha qulay sharoit yuzaga keladi. Korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan yil davo-

mida to‘liq foydalanish uchun xom ashyo resurslarining yetishmovchiligini yumshatish imkoniyati yuzaga keladi. Fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy-texnik dasturlarni shakllantirish va ular ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish jadallashadi.

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qay-ta ishlashni rivojlantirish bo‘yicha respublika va xorijiy davlatlarning investitsiyalarini jalb etish masalasida taklif va qarorlar qabul qilish-da yetakchi bo‘g‘in sifatida ishtirok etadi, javobgarlik va manfaatdorlik oshadi. Mazkur sohani chuqur tahlil qilish va uni o‘rganish uchun yagona ma‘lumotlar bazasi shakllanti-ri-ladi. Natijada tarmoq rivojlanishini kompleks monitoring, nazorat va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://ec.europa.eu/eip/agriculture/sites/default/files/fg35_starting_paper_2019_en.pdf.
2. М.М.Караман. Экономическая эффективность производства сельскохозяйственной продукции в сельскохозяйственных предприятиях Автономной Республики Крым монография / М.М.Караман.–Симферополь: ЧП «Предприятие Феникс», 2009. – 109 с.;
3. Карачевская, Е.В. “Современное состояние рынка лекарственного растительного сырья” // Вестник Белорусской государственной сельскохозяйственной академии. – 2011. – № 2. – С. 5-8.;
4. Тарасенко, С.А.Производство лекарственного растительного сырья –важнейшее направление деятельности Республиканского АПК/2014. – С. 3-6.;
5. Терехин, А.А. Технология возделывания лекарственных растений – М.: РУДН, 2008. – 201 с.
6. Черкашина, Е.В. Экономика и организация рационального использования и охраны земель эфиромасличной и лекарственной отрасли в Российской Федерации: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.05/ Черкашина Елена Вячеславовна. – М., 2014. – 418 с.;
7. Алексеев Ю.Е. Травянистые растения (отв. ред.) – Т. 2. – М.: Книга по требованию, 2013. – 404 с.;
8. Zokirov O. «Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti» Darslik. Toshkent -“ILM-ZIYO” 2017.262-bet.,
9. Ergashev R.X. /Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti / Darslik. Toshkent-«EXTREMUM PRESS» 2018. –362 bet,
- 10.M.S.Yusupov. Jaxon agrar va oziq-ovqat bozorlariga integratsiyalashuv sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish. -T.: Iqtisodiyot, 2014, -207 b.
11. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov SH.A. (2016). Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma. —T.: O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi nashriyoti. - 260 b.
12. Абубакиров Н. К. и др. Способ получения сапонина" Дипсакозид", обладающего гипополипидемической активностью. – 1991.,
13. Бутков А. Я., Мельникова Р. Д. Сорные растения Узбекистана и меры борьбы с ними. – 1997., Гранитов И. И. Растительный покров юго-западных Кызылкумов. – Наука, 2007.,
14. Цукерваник И. П. Эфирное масло из цветов джиды (E. angustifolia L.) //Труды Института химии. Ташкент. – 2008. – №. 1. – С. 48.,
15. Султонов М. Б. Формирование персидско-таджикской медицинской терминологии //Международный журнал экспериментального образования. – 2012. – №. 9. – С. 81-83.
16. “BBU-AZAMAT” xususiy korxonasi ma‘lumotlari.